

YANGI RENESSANS

RESPUBLIKA ILMIY JURNALI

2024



+998945668868



www.innoworld.net

Google Scholar



zenodo





MUAMMOLI VAZIYAT USLUBIDAN FOYDALANISHGA QO'YILADIGAN ASOSIY TALABLAR

Hakimov Saibdjan- f.m.f.n., dotsent;
Nasirov Ilxam Zakirovich- t.f.n., professor,
Andijon mashinasozlik instituti

Talabalarni ng ta'lim jarayonidagi faolliklari ularning mashg'ulotlarni diqqat bilan tinglab, o'quv materialini tahlil qilish, taqqoslash, xulosalar chiqarish kabi aqliy faoliyatlari orqali namoyon bo'ladi. Mahlumki, anhanaviy ta'limda talabalar o'qituvchining ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarida o'qituvchi tomonidan berilayotgan tayyor jamlangan, tartiblangan ma'lumotlarini tinglab, tayyor ko'rsatmalari asosida misollar ishlab bilim oladilar. Bunday reproduktiv ta'lim jarayonida talabalar o'qituvchi yozdirgan isbotlarni yodlash, ishlab bergan misollariga o'xshatib misol ishlash, o'qituvchidan eshitganlarini takrorlash kabi faoliyat bilan shug'ullanib, ta'lim jarayonining oddiy kuzatuvchisi, tinglovchisi bo'lib qoladilar.

Talabalarni hozirgi kun talablaridan kelib chiqqan holda o'qitish, ta'lim-tarbiya berishda bunday an'anaviy usullar ish bermay qoldi. Shu sababdan ta'lim jarayoniga talaba bilan o'qituvchidan bu jarayonning faol ishtirokchilariga aylantiruvchi savol-javob, bahs-munozara, muammoli, modulli, taqlidiy o'yinlar, ochiq muloqot kabi bir qancha usullarini qo'llash tajribalari keng olib borilmoqda.

Ta'lim tizimining hozirgi zamon rivojlanishi bosqichida amaliyotni shaxsga yo'naltirilgan turli texnologiyalar bilan boyitish muhim vazifa hisoblanib, o'shalardan bittasi muammoli vaziyat o'qitish texnologiyasi bo'lishi mumkin [1].

“Aqliy hujum” usul- biror muammo bo'yicha ta'lim oluvchilar tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to'plab, ular orqali ma'lum bir yechimga kelinadigan usuldir. “Aqliy hujum” usulining yozma va og'zaki shakllari mavjud. Og'zaki shaklida ta'lim beruvchi tomonidan berilgan savolga ta'lim oluvchilarning har biri o'z fikrini og'zaki bildiradi. Ta'lim oluvchilar o'z javoblarini aniq va qisqa tarzda bayon etadilar. Yozma shaklida esa berilgan savolga ta'lim oluvchilar o'z javoblarini qog'oz kartochkalarga qisqa va barchaga ko'rinarli tarzda yozadilar. Javoblar doskaga (magnitlar yordamida) yoki «pinbord» doskasiga (ignalar yordamida) mahkamlanadi. “Aqliy hujum” usulining yozma shaklida javoblarni ma'lum belgilar bo'yicha guruhlab chiqish imkoniyati mavjuddir. Ushbu usul to'g'ri va ijobiy qo'llanilganda shaxsni erkin, ijodiy va nostandart fikrlashga o'rgatadi [2].

“Aqliy hujum” usulidan foydalanilganda ta'lim oluvchilarning barchasini jalb etish imkoniyati bo'ladi, shu jumladan ta'lim oluvchilarda muloqot qilish



va munozara olib borish madaniyati shakllanadi. Ta'lim oluvchilar o'z fikrini faqat og'zaki emas, balki yozma ravishda bayon etish mahorati, mantiqiy va tizimli fikr yuritish ko'nikmasi rivojlanadi. Bildirilgan fikrlar baholanmasligi ta'lim oluvchilarda turli g'oyalar shakllanishiga olib keladi. Bu usul ta'lim oluvchilarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish uchun xizmat qiladi [3].

“**Aqliy hujum**” usuli ta'lim beruvchi tomonidan qo'yilgan maqsadga qarab amalga oshiriladi:

1. Ta'lim oluvchilarning boshlang'ich bilimlarini aniqlash maqsad qilib qo'yilganda, bu usul darsning mavzuga kirish qismida amalga oshiriladi.

2. Mavzuni takrorlash yoki bir mavzuni keyingi mavzu bilan bog'lash maqsad qilib qo'yilganda –yangi mavzuga o'tish qismida amalga oshiriladi.

3. O'tilgan mavzuni mustahkamlash maqsad qilib qo'yilganda-mavzudan so'ng, darsning mustahkamlash qismida amalga oshiriladi.

“**Aqliy hujum**” usulini qo'llashdagi asosiy qoidalar:


1. Bildirilgan fikr-g'oyalar muhokama qilinmaydi va baholanmaydi.

2. Bildirilgan har qanday fikr-g'oyalar, ular hatto to'g'ri bo'lmasa ham inobatga olinadi.


3. Har bir ta'lim oluvchi qatnashishi shart.

Quyida “**Aqliy hujum**” usulining tuzilmasi keltirilgan.


Muammoli savol beriladi



Fikr va g'oyalar eshitiladi va jamlab boriladi



Fikr va g'oyalar guruhlanadi



Aniq va to'g'ri javob tanlab olinadi

“Aqliy hujum” usulining bosqichlari quyidagilardan iborat [4-6]:

1. Ta'lim oluvchilarga savol tashlanadi va ularga shu savol bo'yicha o'z javoblarini (fikr, g'oya va mulohaza) bildirishlarini so'raladi;

2. Ta'lim oluvchilar savol bo'yicha o'z fikr-mulohazalarini bildirishadi;

3. Ta'lim oluvchilarning fikr-g'oyalari (magnitafonga, videotasmaga, rangli qog'ozlarga yoki doskaga) to'planadi;

4. Fikr-g'oyalar ma'lum belgilar bo'yicha guruhlanadi;

5. Yuqorida qo'yilgan savolga aniq va to'g'ri javob tanlab olinadi.





“**Aqliy hujum**” usulining afzalliklari:

- natijalar baholanmasligi ta’lim oluvchilarda turli fikr-g’oyalarning shakllanishiga olib keladi;
- ta’lim oluvchilarning barchasi ishtirok etadi;
- fikr-g’oyalar vizuallashtirilib boriladi;
- ta’lim oluvchilarning boshlang’ich bilimlarini tekshirib ko’rish imkoniyati mavjud;
- ta’lim oluvchilarda mavzuga qiziqish uyg’otadi.

“**Aqliy hujum**” usulining kamchiliklari:

- ta’lim beruvchi tomonidan savolni to’g’ri qo’ya olmaslik;
- ta’lim beruvchidan yuqori darajada eshitish qobiliyatining talab etilishi.

“Bahs-munozara” usuli - biror mavzu bo’yicha ta’lim oluvchilar bilan o’zaro bahs, fikr almashinuv tarzida o’tkaziladigan o’qitish usulidir. Har qanday mavzu va muammolar mavjud bilimlar va tajribalar asosida muhokama qilinishi nazarda tutilgan holda ushbu usul qo’llaniladi. Bahs-munozarani boshqarib borish vazifasini ta’lim oluvchilarning biriga topshirishi yoki ta’lim beruvchining o’zi olib borishi mumkin. Bahs-munozarani erkin holatda olib borish va har bir ta’lim oluvchini munozaraga jalb etishga harakat qilish lozim.

Ushbu usul olib borilayotganda ta’lim oluvchilar orasida paydo bo’ladigan nizolarni darhol bartaraf etishga harakat qilish kerak.

“Bahs-munozara” usulini o’tkazishda quyidagi qoidalarga amal qilish kerak:

barcha ta’lim oluvchilar ishtirok etishi uchun imkoniyat yaratish;


“o’ng qo’l” qoidasi (qo’lini ko’tarib, ruhsat olgandan so’ng so’zlash)ga rioya qilish;


fikr-g’oyalarni tinglash madaniyati;

bildirilgan fikr-g’oyalarning takrorlanmasligi;

bir-birlariga o’zaro hurmat [7].

Quyida “**Bahs-munozara**” usulini o’tkazish tuzilmasi berilgan.





Aniq va maqbul yechimni topiladi

“**Bahs-munozara**” usulining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta’lim beruvchi munozara mavzusini tanlaydi va shunga doir savollar ishlab chiqadi.
2. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarga muammo bo’yicha savol beradi va ularni munozaraga taklif etadi.
3. Ta’lim beruvchi berilgan savolga bildirilgan javoblarni, ya’ni turli g’oya va fikrlarni yozib boradi yoki bu vazifani bajarish uchun ta’lim oluvchilardan birini kotib etib tayinlaydi. Bu bosqichda ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarga o’z fikrlarini erkin bildirishlariga sharoit yaratib beradi.
4. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilar bilan birgalikda bildirilgan fikr va g’oyalarni guruhlariga ajratadi, umumlashtiradi va tahlil qiladi.
5. Tahlil natijasida qo’yilgan muammoning eng maqbul yechimi tanlanadi [8,9].

Ta’lim– tarbiya jarayonida faol, innovatsion, noan’anaviy masalan “4 pog’onali usuldan” matematika va boshqa fanlarni o’qitishda foydalanish o’quv yurtlarida axborot texnologiyalarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg’unlashgan holda qo’llash, multimediali dars ishlanmalaridan foydalanish, o’quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish, o’quv mashg’ulotlari samaradorligini, o’qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini, o’qitishda masofaviy ta’lim va kompyuter savodxonligini orttirishga zamin tayyorlaydi.

Yangi pedagogik texnologiyalar asosida darslarga qo’yilgan talablarga tayangan holda darsni tashkil etish noan’anaviy usullaridan foydalanish ta’lim oluvchilar bilim olishini yengillashtiradi, ularning mashg’ulotlardagi faolligini oshiradi [10].

Hozirgi zamonaviy darsda o’qituvchi yetakchi, rejissyor, boshqaruvchi bo’lib, asosiy ijrochi esa talaba bo’lishini talab etadi. Talaba darsda o’qituvchi rahbarligida faol ishtirokchi sifatida faoliyat ko’rsatadi, guruhdagi talabalar bilan fikrlashadi, baxs-munozarada qatnashadi, hamkorlikda ishlashni o’rgatadi, ulardan o’rganadi, mustaqil ishlaydi va ijodiy fikrlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. S. Hakimov, B.Boltaboyev “O’quvchi va talabalarga matematika fanini o’qitishda didaktikaning asosiy prinsiplarini ahamiyati.”Andijon davlat universiteti. Zamonaviy matematikaning nazariy asoslari va amaliy masalalari respublika ilmiy amaliy anjumani. 2022 yil.
2. S.Hakimov “O’rganuvchilarda amaliy harakterdagi masalalar yechish





- ko'nikmalarini oshirish." Namangan qurilish muhandislik institute. 2022 yil.
3. Nasirov , I. (2023). CONDUCTING LESSONS IN THE "MENTAL ATTACK" METHOD. *International Conference On Higer Education Teaching*, 1(1), 86-89. Retieved from <https://aidlix.comphp/aeticle/view/90>
 4. Насиров И.З, Буранова Ш.У., Т.З. (2022). ВЫПУСК ВОДЫ ДЛЯ ОТКРЫТЫХ СПРИНКЛЕРОВ. *Confrencea* , 6 (6), 59–62. Получено с <https://confrencea.org/index.php/confrenceas/article/view/165>.
 5. Насиров Илхам Закирович, Валиева Муфаззалхон Казимжановна. Машғулотларни олиб боришда “ақлий ҳужум” усулидан фойдаланиш// «Qayta tiklanuvchi energiya resurslaridan foydalanishning dolzarb muammolari, energiya tejamkor qurilmalarning samaradorligini oshirishda sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalarni tadbiq etish» mavzusidagi xalqaro ilmiy– texnik anjuman ilmiy-maqola va tezislar to'plami. 18-19- sentabr, 2023-yil, Andijon, 306-310 b.
 6. Gaffarov Maxamatzokir Toshtemirovich, Nasirov Ilham Zakirovich. XALQARO LOGISTIKA STRATEGIYASI//ANDIJON IQTISODIYOT VA QURILISH INSTITUTI “O'zbekistonning investitsion muhit jozibadorligi - qurilish taraqqiyotining muhim omili va xorij tajribasidan foydalanish imkoniyatlari” mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to'plami. Андижон: АнДИҚИ- 2023, 602-606 б.
 7. Nasirov Ilxam Zakirovich. **TEXNIK IJODKORLIK ASOSLARI** (o'quv qo'nlanma). O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI. № DGU 28168.
 8. Ilham Nasirov. **Fundamentals of Technical Creativy**. 120 High Road, East Finchlley, London, N2 9ED, United Kingdom. Str. Armeneasca 28/1, affice 1, Chisinau MD-2012, Republic of Moldova, Europe. Printed at: see last page. ISBN: 978-620-6-78286-5
 9. Nasirov Ilxam Zakirovich. **Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi**// Darslik. ISBN 978-9910-776-38-0. Andijon: Omadbek print number one, 2024- 330 b.
 10. Nasirov Ilxam Zakirovich. **Texnik ijodkorlik asoslari** // O'quv qo'llanma. ISBN 978-9910-776-39-7. Andijon: Omadbek print number one, 2024- 125 b.